Совершенствование методологии исследования демографических процессов.....	1031
Тула Нодирбек Баходир угли	
Инновационные технологии в сфере страхования.....	1037
Хайдарова Нигинахон Шухрат кизи	
Iqtisodiyotni innovatsion isloh qilish sharoitida yer hisobini yuritishning ahamiyati.....	1042
Hojiyev Qo'chqor Mamadiyorovich	
Qattiq maishiy chiqindilarni utilizatsiya qilish orqali qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan keng foydalanishni takomillashtirish.....	1047
Sherqulov Nodir Erkin o'g'li	
Мировой опыт использования денежных и натуральных трансфертов в социальном обеспечении.....	1052
Гулноза Тохировна Самиева	
Davlat xaridlarini amalga oshirish orqali raqobatni rivojlantirish yo'llari.....	1057
Majidov Nizomjon	
Raqamli iqtisodiyot davrida kontent marketingdan foydalanish va uning bosqichlari.....	1064
Tohirjonov Ahmadjon Tohirjon o'g'li, Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna	
Aksiyadorlik jamiyatlari kapitalini shakllantirish manbalari va usullarini takomillashtirish.....	1070
Norqulov Mirsaid Tulqin o'g'li	
Qishloq xo'jaligi sohasida investitsion jozibadorlikni oshirish zaruriyati.....	1075
Badalov Jamshid Jamolovich	
Foyda solig'i tushumi va uning O'zbekiston soliq-budjet tizimidagi ahamiyati.....	1080
Shirinov Sabir Erkinovich	
O'zbekistonda davlat korxonalari aksiyalarini moliya bozorlarida sotishni jadallashtirish yo'nalishlari.....	1084
Anvar Eshmatov	
Baliqchilik xo'jaliklarida xodimlar bilan hisob-kitoblar hisobining tashkiliy va uslubiy jihatlarini.....	1088
Ametova Nasiba Danilovna	
Tijorat banklari tomonidan eksportyor korxonalarining kreditlash amaliyotini takomillashtirish.....	1092
Bayjanova Gozzal Sarsengaliyevna	
Digital Transformation of Tax Systems.....	1096
Boburjon Turanboyev Qodirjon o'g'li, Musabekov Sherali Nazarali o'g'li	
Yangi O'zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish yo'nalishlari.....	1101
Raxmonova Aziza Tolibovna	
Transitioning to a Green Economy and Implementing Sustainable Technological Changes in Uzbekistan.....	1106
Umarov Elshod G'ulom o'g'li	
Texnik yo'nalishdagi oliy ta'lim muassasalari daromadlari tarkibi va ularning o'ziga xos jihatlari.....	1112
Yuldashov Elmurod Abdujalil o'g'li	
Совершенствование системы профессионального управления жилищно-коммунальным хозяйством Узбекистана.....	1116
Икромовна Ханифа Одилловна	
Sanoat korxonalarini kreditlash amaliyotining zamonaviy holati.....	1121
Kamalova Jamila	
O'zbekistonda davlat ishtirokidagi korxonalarining huquqiy maqomi va ularni isloh qilishning istiqbollari.....	1125
Qahhorov Azizjon Ahror o'g'li	
Nodavlat notijorat tashkilotlari mablag'lari va ulardan foydalanish to'g'risidagi bajarilishlarga oid hisobotni tuzish va taqdim etish tartibi.....	1131
Ne'matov Oybek Ismatullayevich	
Предприятие автомобильной промышленности как объект реализации концепции устойчивого развития.....	1136
Туйчиев Комилжон Лазизович	
Tijorat banklari aktivlari diversifikatsiyasining nazariy ahamiyati.....	1143
O'ktamova Nozima Narzulla qizi	
Tijorat banklarida yangi masofaviy bank xizmat turlarini rivojlantirish.....	1146
Umarov Abdulquddus Abdilxatovich	
Некоторые вопросы эконометрической оценки CES – функций и их практическое применение в экономических задачах.....	1151
Шадиева Гулнора Мардиевна, Усманов Фарзод Шохрухович	
Использование искусственного интеллекта в спортивной индустрии.....	1158
Усманова Дилфузахон Иброхимовна	
The Role and Significance of Internal Audit as an Effective System of Internal Control in Business Entities.....	1163
Po'latov Sherzodbek Oybek o'g'li, Farmonov Ilhomjon Iqboljon o'g'li	



Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanishni takomillashtirish (Andijon viloyati misolida)	1168
Xolmatov Sanjarbek Xojimatovich	
O'zbekiston temir yo'l transport tizimi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari	1174
Qilichev Umid Ibadullayevich	
Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi sharoitida raqamli banklar resurslarini oshirish choralari	1181
Xamraqulova Gulnozaxon Faxriddin qizi	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kredit foiz stavkasini muvofiqlashtirish masalalari	1185
Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li	
O'zbekistonda Islom banklari faoliyatini tashkil etishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati	1191
Vasiyev Alisher Samiyevich, Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
Islom iqtisodiyotining mohiyati	1197
Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
Budjet mablag'larini taqsimlanishi va maqsadli sarflanishida inson kapitalidan foydalanish va jamoatchilik nazoratining samaradorligi	1201
G'ofurov Bekzod Fayzulla o'g'li	
Maxsus iqtisodiy zonalar investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishda tarif va notarif mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatlari	1207
Ja'sur Umirzoqov Artiqboy o'g'li	
Перспективное развитие промышленной кооперации между странами	1212
Назарова Раъно Рустамовна, Жартай Жанибек Маратулы	
Soliqlar yig'iluvchanligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar	1218
Berdiyeva Uguloy Abduraxmanovna	
Ta'lim sifatini ta'minlash oliy ta'lim xizmatlari bozorini rivojlantirishning asosiy omili	1222
Nematov Inatillo Ubaydullayevich	
Aholiga ko'rsatiladigan bank xizmatlarini takomillashtirish	1228
Umurzakova Adiba Ochilovna	
Tijorat banklari resurslari shakllanishining manbalari va yo'llari	1232
Raxmanov Ilxom Xurramovich	
Факторы развития культурного туризма в Узбекистане	1238
Пулатова Сурайё Юлдашевна	
Пути эффективного использования внутренних инвестиций в национальной экономике	1242
Рафиева Зарина Хусановна	
Development of the Country's Economy Through the Development of the Stock Market in Developing Countries	1246
Akhmedov Doniyorbek	
O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotini rivojlanishi va uning asosiy yo'nalishlari	1250
Azizova Manzura Ibragimovna	
The theoretical importance of product cost reduction in industrial production	1254
Dilfuza Baxramovna Safarova	
Fond bozorlarining tashkil etilishi va rivojlanish tendensiyalari	1261
Shamsiyev O'ktam Sayfitdinovich	
Mamlakatda davlat tibbiyot muassasalarining tutgan o'rni va ularni rivojlantirish yo'nalishlari	1266
Sultonova Mushtariy Abdulabbosovna	
Obligatsiyalar bozorida banklarning ishtiroki va ahamiyati	1272
Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li	
Milliy iqtisodiyotimizda investitsiya portfelini shakllantirishning nazariy asoslari	1277
Ibragimov Gafurjan Axmetovich	
Kompaniyalarning tashqi savdo faoliyatini moliyalashtirishning nazariy asoslari va xorij tajribasi	1282
Ibragimov Mansur Axmedovich	
Mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosining samaradorligini oshirish masalalari (Jizzax viloyati misolida)	1286
Mamayusupov Omonulla Mamatqulovich	
Ключевые факторы успеха в мотивации и управлении проектными командами	1294
Мансурова Севара Мансуровна	
Mehmonxona biznesida CRM tizim xizmatlarini loyihalash	1297
Ishanxodjayeva Dilfuza Erkinovna	



MILLIY KAPITAL BOZORIDA KORPORATIV QIMMATLI QOG'OZLAR AMALIYOTI TAHLILI



Otaxonova Shohyora

Toshkent moliya instituti tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada milliy kapital bozorida korporativ qimmatli qog'ozlar amaliyotini o'rganishda kapital bozorining ahamiyati, korporativ qimmatli qog'ozlar mazmun-mohiyati, ahamiyati, turlari va o'ziga xos jihatlari kabilar bo'yicha turli iqtisodchi olimlarning izlanishlari o'rganilgan. Shuningdek, milliy kapital bozorida aksiyalar va korporativ obligatsiyalar emissiyasi, joylashtirilgan qimmatli qog'ozlar hajmi, korporativ qimmatli qog'ozlar emissiyasida sohalar ulushi kabilar tahlil qilingan. Tahlillar asosida tegishli xulosalar va takliflar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: aksiya, obligatsiya, korporativ obligatsiya, kapital bozori, qimmatli qog'ozlar, korporativ qimmatli qog'ozlar, emissiya.

Abstract: This article examines the researches of various economists on the importance of the capital market, the essence, significance, types and specific aspects of corporate securities in the study of the practice of corporate securities in the national kapital market. Also, the issue of shares and corporate bonds in the national kapital market, the volume of placed securities, and the share of industries in the issuance of corporate securities were analyzed. Based on the analysis, appropriate conclusions and proposals were formed.

Key words: stock, bond, corporate bond, kapital market, securities, corporate securities, issue.

Аннотация: В данной статье рассматриваются исследования различных экономистов о значении рынка капитала, сущности, значении, видах и особенностях корпоративных ценных бумаг при изучении практики использования корпоративных ценных бумаг на национальном рынке капитала. Также проанализированы выпуск акций и корпоративных облигаций на национальном рынке капитала, объем размещенных ценных бумаг, доля отраслей в выпуске корпоративных ценных бумаг. По результатам анализа были сформированы соответствующие выводы и предложения.

Ключевые слова: акция, облигация, корпоративная облигация, рынок капитала, ценные бумаги, корпоративные ценные бумаги, эмиссия.

KIRISH

Kapital bozori mamlakat iqtisodiyotini moliyaviy resurslar bilan ta'minlash hamda iqtisodiyotda pul oqimlari aylanmasini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Kapital bozorini samarali shakllantirish va rivojlantirishdagi asosiy moliyaviy instrumentlar sifatida korporativ qimmatli qog'ozlarni ta'kidlash joiz. O'zbekiston kapital bozorini rivojlantirishda, avvalo, an'anaviy korporativ qimmatli qog'ozlar, jumladan, aksiyalar va korporativ obligatsiyalar bilan bog'liq operatsiyalar hajmini oshirish va mazkur amaliyotlarning tashkiliy mexanizmlarini ishlab chiqishga e'tibor qaratish lozim. Shu boisdan milliy kapital bozorida korporativ qimmatli qog'ozlar amaliyotini tahlil qilish dolzarb masalalardan biridir.

ADABIYOTLAR SHARHI

Korporativ qimmatli qog'ozlar muomalasini tadqiq qilish mamlakatda korporativ sektorni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan mazkur sohada ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, M. Naeem va boshqalar ta'kidlashicha, "qimmatli qog'ozlar bozori daromadlarini o'rganish ham tadqiqotchilar uchun, ham amaliyotchilar uchun muhim hisoblanadi. Xususan, qimmatli qog'ozlar bo'yicha daromadlilikni empirik tahlil qilish bir qator sabablarga ko'ra dolzarbdir, jumladan, moliya bozorlarida risk va daromadning asosiy manbalarini aniqlash, ularni tushunish, risklarni diversifikatsiya qilish va boshqalar" ^[1]. Korporativ qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq operatsiyalarda risklarga alohida e'tibor qaratish lozim.



Z. Lu va boshqalar investorlarning riskka moyilligi muhim jihatlardan biri ekanligini ta'kidlagan. "Investorlarda investitsion faoliyat bo'yicha tajribaning to'planishi investorlarning riskli xatti-harakatlariga ta'sir qilishi mumkin. Cheklangan moliyaviy bilim va tajribaga ega bo'lgan shaxslar, odatda, tavakkal qilishni istamaydi. Shu bilan birga qimmatli qog'ozlar kabi o'zgaruvchan moliyaviy aktivlarga sarmoya kiritishda ikkilanadi" [2].

Z. Yin boshchiligidagi mualliflar jamoasining fikricha, "fond bozorini liberallashtirish ko'proq xorijiy investorlarni jalb qiladi va korxonalar bozor raqobatbardoshligini oshirish va ularning ichki ma'lumotlarini oshkor qilish motivatsiyasini kuchaytirish uchun samarali korporativ boshqaruvni amalga oshirishga moyil hisoblanadi. Bozor raqobatining kuchayishi axborot assimetriyasini kamaytirish, bozor talabini qondirish va salbiy reaksiyalarning oldini olish uchun axborotni oshkor qilish sifati va shaffofligini oshirish uchun kompaniyalar o'rtasida raqobatga olib keladi" [3]. Fond bozorida axborotlar shaffofligini ta'minlash investitsion jozibadorlikni oshirishga xizmat qiladi.

"Fond bozorini liberallashtirish keng qamrovli institutsional islohotning shakllaridan biri bo'lib, u samarali amalga oshirilsa, mamlakat iqtisodiyotini jahon kapital bozorlari bilan integratsiyalashtirish holda ham moliyaviy, ham real sektorlarda yaxshilanishga olib kelishi mumkin" [4]. Kapital bozorining rivojlanishi hamda korporativ qimmatli qog'ozlar operatsiyalarining kengayishi regulyatorlar tomonidan amalga oshiriladigan chora-tadbirlarga ham bog'liqligini qayd etish joiz.

S. Elmirzayev va S. Omonov tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda dividend siyosatining aksiyalar bilan bog'liq operatsiyalarga ta'siriga e'tibor qaratilgan. Aksiyadorlik jamiyatlarida samarali dividend siyosatini tashkil etish aksiyalar kursining ijobiy o'zgarishiga va investitsion jozibadorlikning oshishiga xizmat qilishi tadqiq qilingan [5].

A. Karimov korporativ qimmatli qog'ozlar operatsiyalarini samarali tashkil etishda aksiyalarni ommaviy joylashtirish amaliyotlarining turli shakllarini qo'llash zarurligini qayd etgan. "Aksiyalarning birjadan tashqari joylashtirilishi – DPO (Direct Public Offering) odatda, fond bozorini chetlab o'tgan holatda investorga to'g'ridan-to'g'ri kompaniya qimmatli qog'ozlarini taklif etish bo'lsa, yangi aksiyadorlik jamiyatini tashkil etganda aksiyalarini fond birjasida ommaviy joylashtirilishi – IPO (Initial Public Offering), ikkilamchi joylashtirish jarayoni – Follow-on, kompaniya qimmatli qog'ozlarini (aksiya, obligatsiya, depozitar veksellar)ni ommaviy joylashtirish – RRO (Primaries Public Offering), yirik aksiyadorning aksiyalarini ommaviy joylashtirish jarayoni – SPO (Secondary Public Offering), ma'lum toifa investorlar uchun aksiyalarning yopiq tarzda joylashtirilishi – PO (Private placement yoki Private Offering), aksiyadorlar kelishilgan holatda bir vaqtda aksiyalarini ommaviy joylashtirish jarayoni – RVO (Piggyback Offering) deb nomlanadi" [6].

Kapital bozorida korporativ qimmatli qog'ozlar savdosini rivojlantirishda robo-maslahatchilarning ahamiyati katta hisoblanadi. "Risk qilishga moyil bo'lgan investorlar riskli portfelni tanlashlari mumkin (masalan, ko'proq aksiyalar, davlat obligatsiyalari), aksincha, riskdan qochgan investorlar past volatillikda past rentabellikni taklif qiladigan portfelni tanlashlari mumkin (portfelda risk darajasi past qimmatli qog'ozlarning nisbatan yuqori ulushi mavjud bo'ladi). Har bir individual investorning riskga bo'lgan moyilligini baholash orqali robo-maslahatchilar individual portfellarni shakllantirishi mumkin" [7]. Milliy kapital bozorida zamonaviy moliyaviy texnologiyalar ishtirokini oshirish investorlar uchun qulayliklar yaratish bilan birga kapital bozorida pul oqimlari aylanmasini oshirishga xizmat qiladi.

B. Mamatov kapital bozori rivojlanishida korporativ obligatsiyalar, shu jumladan, yashil obligatsiyalarning ahamiyatiga to'xtalib o'tgan. "Yashil obligatsiyalar qimmatli qog'ozlar bozorida yangi moliyaviy instrument sifatida boshqa instrumentlardan ekologik foydali loyihalarni, qayta tiklanadigan energetika loyihalari, energetika samaradorligini oshirish va ekologik toza transportdan foydalanishni moliyalashtirishga yo'naltirilishi bilan farqlanadi" [8]. Milliy kapital bozorida zamonaviy korporativ qimmatli qog'ozlar turlarini ko'paytirish mazkur bozorni rivojlantirishda muhim jihatlardan hisoblanadi.

"Jahon amaliyotidan ma'lumki, kapital bozori iqtisodiyotni uzoq muddatli moliyaviy resurslar bilan ta'minlashning o'ziga xos vositasi, makroiqtisodiy siyosatning asosiy elementi hamda mamlakat iqtisodiyoti barqarorligini ta'minlashning muhim omili hisoblanadi. Shu bois mamlakatimizda kapital bozori sohasidagi islohotlarni chuqurlashtirish, kapital bozorining milliy iqtisodiyotdagi rolini oshirish va uning salohiyatidan samarali foydalanish" [9] bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Yuqoridagi olimlar va tadqiqotchilarning fikrlarini inobatga olgan holda ta'kidlash lozimki, kapital bozorida korporativ qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq operatsiyalarni kengaytirishda zamonaviy moliyaviy texnologiyalardan foydalanish, korporativ qimmatli qog'ozlar turlarini oshirish hamda ularning rentabelligini oshirishga e'tibor qaratilishi maqsadga muvofiq.

TADQIQOT METODOLOGIYASI


Milliy kapital bozorida korporativ qimmatli qog'ozlar amaliyotini tahlil qilishda analiz, sintez, statistik tahlil, deduksiya, induksiya, qiyoslash kabi metodlardan foydalanilgan.



TAHLIL VA NATIJALAR


Mamlakatimizda so'nggi yillarda kapital bozorini rivojlantirish bo'yicha qator chora-tadbirlar hamda islohotlar amalga oshirilmoqda. Mazkur jarayonda o'ziga xos muammoli jihatlar ham ko'zga tashlanayotganligini ta'kidlash lozim. Jumladan, kapital bozorida moliyaviy instrumentlar rentabelligi pastligi, mahalliy va xorijiy investorlar qiziqishi pastligi, moliyaviy instrumentlari turlarining kamligi, kapital bozori infratuzilmasining xalqaro talablarga javob bermasligi, milliy kapital bozorining xorijiy kapital bozorlari va ishtirokchilari bilan samarali integratsiyaning amalga oshirilmaganligi kabilarni aytib o'tish mumkin. Mazkur sharoitda korporativ qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq operatsiyalarning joriy holatini o'rganish asosida muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish yo'nalishlarini aniqlash muhim hisoblanadi.

Kapital bozorida korporativ qimmatli qog'ozlar chiqarilishlari tahlil qilinsa, faqatgina aksiyalar hamda korporativ obligatsiyalar emissiyasi ko'zga tashlanadi. Biroq korporativ obligatsiyalar emissiyasi aksiyalar amaliyotidan ko'ra tor doirada ekanligini ko'rish mumkin (1-rasm).




1-rasm: Kapital bozorida korporativ qimmatli qog'ozlar chiqarilishlari tahlili ^[10]

Milliy amaliyotda aksiyalar chiqarishlar soni 2023-yil oktyabr holatiga ko'ra jami 2081 tani tashkil etgan bo'lsa, korporativ obligatsiyalar emissiyasi soni 39 tadan iborat (1-rasm).




2-rasm: Kapital bozorida korporativ qimmatli qog'ozlar chiqarilishlarining ulushi ^[10]

2-rasmda kapital bozorida korporativ qimmatli qog'ozlar chiqarilishlari ulushi aks ettirilgan. Jami chiqarilgan korporativ qimmatli qog'ozlarda aksiyalar emissiyasi jamiga nisbatan 98 foiz va korporativ obligatsiyalar 2 foizni qayd etgan.




3-rasm: Milliy kapital bozoridagi korporativ qimmatli qog'ozlarni joylashtirilganlik holati, mlrd. so'm ^[10]

3-rasmda milliy kapital bozoridagi korporativ qimmatli qog'ozlarni joylashtirilganlik holati tahlil qilingan. 2023-yil oktyabr holatiga ko'ra jami aksiyalar emissiyasi 187381,5 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsa, mazkur aksiyalardan 184140,9 mlrd. so'm hajmidagi qismi joylashtirilgan, qolgan qismi esa joylashtirish jarayonidagi aksiyalardan iborat. Korporativ obligatsiyalar emissiya hajmi jami 1001,8 mlrd. so'm bo'lgan bo'lsa, shundan 785,5 mlrd. so'm hajmdagi korporativ obligatsiyalar joylashtirilganligini kuzatish mumkin.



4-rasm: Sohalar kesimida chiqarilgan aksiyalar tahlili (1.10.2023) ^[10]

Milliy kapital bozorining joriy holatida aksiyalar emitentlarini sohalar kesimida tahlil qiladigan bo'lsak, chiqarilgan aksiyalarning 47 foizi sanoat sohasiga tegishli bo'lsa, 37 foizi moliya sohasiga tegishli kompaniyalar tomonidan chiqarilgan. Xizmatlar sohasidagi kompaniyalar jami aksiyalarning 11 foizni emissiya qilgan bo'lsa, 5 foizlik ko'rsatkich bilan qishloq xo'jaligi sohasi eng past ko'rsatkichni qayd etgan (4-rasm).



5-rasm: Sohalar kesimida chiqarilgan aksiyalar hajmi, mlrd. so'm (1.10.2023) ^[10]



Sohalar kesimida chiqarilgan aksiyalar hajmi tahlil qilinsa, 88299,2 mlrd. so'm hajmidagi aksiyalar sanoat korxonalari tomonidan emissiya qilingan. Moliya sektori korxonalari 70035,6 mlrd. so'm, xizmatlar sohasidagi kompaniyalar 20697,7 mlrd. so'm hamda qishloq xo'jaligi sohasidagi korxonalar 8349 mlrd. so'm hajmidagi aksiyalar emissiyasini amalga oshirganligini ko'rish mumkin (5-rasm).

XULOSA

Milliy kapital bozorida korporativ qimmatli qog'ozlar amaliyotini tahlil qilish orqali quyidagi xulosalar shakllantirilgan.

Birinchidan, korporativ qimmatli qog'ozlar kapital bozoridagi asosiy moliyaviy instrumentlar hisoblanadi. Shu boisdan har bir rivojlanayotgan mamlakatlarda, jumladan, O'zbekistonda ham kapital bozorini rivojlantirishda mazkur moliyaviy instrumentlar amaliyotini kengaytirish bo'yicha alohida strategiyalar ishlab chiqilishi zarur.

Ikkinchidan, milliy kapital bozorida korporativ qimmatli qog'ozlardan faqatgina aksiyalar va korporativ obligatsiyalar amaliyoti mavjud. Vaholanki, kapital bozorining investitsion jozibadorligini oshirish uchun infrazuzilma obligatsiyalari, ipoteka qimmatli qog'ozlari, yashil obligatsiyalar, islom qimmatli qog'ozlari kabi instrumentlarni amaliyotga joriy etish zarur.

Uchinchidan, kapital bozorida moliya sektori korxonalari faolligini oshirishga e'tibor qaratish lozim. Moliya sektoridagi korxonalarning kapital bozoridagi faolligini oshirish nafaqat mazkur sektorning kapital bozoridagi ulushini oshirishga xizmat qiladi, balki boshqa sektor korxonalari uchun vositachilik xizmatlarini ham taqdim etishi mumkin.

To'rtinchidan, aksiyadorlik jamiyatlarida davlat ulushini xususiylashtirish bilan bog'liq chora-tadbirlarini samarali amalga oshirishda aksiyalarni ommaviy joylashtirish amaliyotlaridan foydalanish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Muhammad Abubakr Naeem, Ioannis Chatziantoniou, David Gabauer, Sitara Karim. Measuring the G20 stock market return transmission mechanism: Evidence from the R2 connectedness approach. // International Review of Financial Analysis, Volume 91, January 2024. <https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S1057521923005021>
2. Zhiqiang Lu, Junjie Wu, Hongyu Li, Brian Galloway. Digital finance and stock market participation: The case of internet wealth management products in China. // Economic Systems, Available online 11 September 2023. <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0939362523000870>
3. Zhichao Yin, Xinqi Li, Dengkui Si, Xiaolin Li. China stock market liberalization and company ESG performance: The mediating effect of investor attention. // Economic Analysis and Policy, Volume 80, December 2023, Pages 1396-1414. <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0313592623002692>
4. Hongpan Zhang, Jiayue Zhao. Stock market liberalization and financial reporting quality. // China Journal of Accounting Research, Available online 26 September 2023. <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S1755309123000382>
5. Elmirzayev S., Omonov S. Dividend Policy Analysis In Developed Countries And Dividend Aristocrats // International Finance and Accounting. – 2020. – T. 2020. – №. 2. – C. 22.
6. A. I. Karimov Fond bozoriga investorlarni jalb qilishda ommaviy joylashtirish amaliyotlarining ahamiyati, Moлия jurnali, 2023 yil, 5-son.
7. Omonov S. Kapital bozorida moliyaviy texnologiyalardan foydalanishda robomaslahatchilarning o'rni // Приоритетные направления, современные тенденции и перспективы развития финансового рынка. – 2023. – С. 313-315.
8. B. Mamatov. Yashil obligatsiyalar bozori orqali O'zbekiston iqtisodiyotiga investitsiya jalb qilish imkoniyatlari. // International Journal of Finance and Digitalization, Vol. 1 Issue 01, 2022.
9. Xo'jamurodov A. J. et al. Fond bozorida ma'lumotlarni o'z vaqtida va to'liq oshkor etilishini ta'minlash yo'nalishlari // Research and Education. – 2023. – T. 2. – №. 4. – С. 394-402.
10. <https://depo.uzcsd.uz/api/Website/GetPdfById1571> – O'zbekiston Respublikasi Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi ma'lumotlari.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 11-12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.